



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



SIYOSIY MATNLARDA KOMMUNIKATIV STRATEGIYALAR VA ULARNING TARJIMADA IFODALANISHI

COMMUNICATIVE STRATEGIES IN POLITICAL TEXTS AND THEIR REALIZATION IN TRANSLATION

Mamarasulova Gulnoz Abdulqosimovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, doktoranti

E-mail: mamarasulovagulnoz@navoiy-uni.uz

ORCID 0000-0001-6070-5764

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./TOJA4878](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./TOJA4878)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada geosiyosiy matnlarga xos bo‘lgan kommunikativ strategiyalar va ularning tarjimada pragmatik moslashuvi qiyosiy tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqotda lingvopragmatik va diskursiv yondashuvlarga tayangan holda siyosiy matnlarda odatda ustunlik qiladigan uch asosiy kommunikativ strategiya — legitimlashtiruvchi, neytrallashtiruvchi va mobilizatsion strategiyalar aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Geosiyosiy matnlar, siyosiy nutq, kommunikativ strategiyalar, pragmatik moslashuv, tarjima tahlili, diskurs.*

Annotation. *This article explores communicative strategies typical of geopolitical texts and their pragmatic adaptation in translation through a comparative analysis. Relying on linguopragmatic and discourse-oriented approaches, the study identifies three core communicative strategies commonly employed in geopolitical texts: legitimizing, neutralizing, and mobilizing strategies.*

Keywords: *Geopolitical texts, political speech, communicative strategies, pragmatic adaptation, translation analysis, discourse.*

Zamonaviy xalqaro munosabatlar sharoitida geosiyosiy matnlar davlatlararo siyosiy kommunikatsiyaning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Davlat rahbarlari nutqlari, diplomatik bayonotlar va strategik hujjatlar orqali siyosiy pozitsiyalar ifodalanadi, legitimlashtiriladi va xalqaro auditoriyaga yetkaziladi. Ushbu jarayonda til nafaqat axborot uzatuvchi vosita, balki siyosiy ma’no va ideologik yo‘nalishni shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois geosiyosiy matnlar tarjimasi oddiy lingvistik ekvivalentlik bilan cheklanmay, murakkab pragmatik va diskursiv moslashuvni talab qiladi.



Globalashuv va xalqaro munosabatlar jadallashgan hozirgi davrda geosiyosiy matnlar davlatlararo siyosiy kommunikatsiyaning muhim vositasiga aylanmoqda. Davlat rahbarlari nutqlari, diplomatik bayonotlar va xalqaro tashkilotlar doirasida qabul qilinadigan hujjatlar orqali siyosiy pozitsiyalar ifodalanadi, legitimlashtiriladi hamda turli auditoriyalarga yetkaziladi. Bunday matnlarda til nafaqat axborot uzatish vositasi, balki siyosiy ma'no, ideologik yo'nalish va kommunikativ ta'sirni shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli geosiyosiy matnlarni tarjima qilish jarayoni oddiy lingvistik ekvivalentlik bilan cheklanmay, murakkab pragmatik va kommunikativ moslashuvni talab etadi.

Geosiyosiy matnlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning aniq kommunikativ strategiyalar asosida qurilishidir. Ushbu strategiyalar siyosiy qarorlarni asoslash, diplomatik ehtiyotkorlikni ta'minlash va auditoriyani umumiy maqsadlar sari safarbar etishga xizmat qiladi. Zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslik tadqiqotlarida bunday strategiyalar legitimlashtiruvchi, neytrallashtiruvchi va mobilizatsion strategiyalar sifatida talqin qilinadi. Biroq ushbu strategiyalarning tarjimada qanday qayta qurilishi, ularning maqsad auditoriya va milliy siyosiy nutq me'yorlariga moslashuvi masalasi hali ham yetarlicha chuqur o'rganilmagan.

O'tkazilgan qiyosiy tarjima tahlili geosiyosiy matnlarda kommunikativ strategiyalar tizimli va izchil xarakterga ega ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, manba matn (o'zbekcha prezident nutqi) va maqsad matn (inglizcha rasmiy tarjima) o'rtasida mazmuniy yadro saqlangan bo'lsa-da, kommunikativ strategiyalarning ifodalanish darajasi va intensivligi jihatidan muhim pragmatik farqlar mavjud. Ushbu farqlar tasodifiy emas, balki geosiyosiy matnlar tarjimasiga xos bo'lgan pragmatik moslashuv jarayonining natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlar va tahlil materialiga tayangan holda, geosiyosiy matnlarda odatda uch asosiy kommunikativ strategiya ustunlik qilishi aniqlanadi:

1. Legitimlashtiruvchi strategiya;
2. Neytrallashtiruvchi (yumshatuvchi) strategiya;
3. Mobilizatsion (ruhiy-ideologik) strategiya.

Ushbu strategiyalar ko'pincha bir matn doirasida o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi va tarjimada ularning nisbatini saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Legitimlashtiruvchi strategiya va uning tarjimada ifodalanishi

Legitimlashtiruvchi strategiya geosiyosiy matnlarda eng markaziy kommunikativ mexanizmlardan biri bo'lib, u siyosiy qarorlar, tashabbuslar va pozitsiyalarni auditoriya nazarida asoslash, oqlash va maqbullashtirishga xizmat qiladi. Tanqidiy diskurs tahlili doirasida legitimlashtirish hukumat qarorlarining “tabiiy”, “mantiqiy” yoki “zarur” ekanini ko'rsatish orqali ularni bahs-munozaradan chiqarish jarayoni

sifatida talqin qilinadi. Davlat rahbarlari nutqlarida legitimlashtiruvchi strategiya ko‘pincha ratsional dalillar, tarixiy xotira, kollektiv qadriyatlar va institutsional tayanchlar orqali amalga oshiriladi.

Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvidagi nutqida [Mamarasulova.G, 2025] legitimlashtiruvchi strategiya ayniqsa izchil va tizimli tarzda qurilgan bo‘lib, u tarjimada ham markaziy pragmatik yadroni tashkil etadi. Biroq o‘zbekcha va inglizcha variantlarda ushbu strategiyaning ifodalanish shakli va diskursiv og‘irligi sezilarli darajada farqlanadi.

Nutqning inglizcha variantida legitimlashtirish avvalo ratsional va faktlarga tayangan mexanizm orqali amalga oshiriladi. Masalan:

“Last year mutual trade among our countries reached \$10.7 billion, the total volume of investment in Central Asia increased by 17 percent.”

Ushbu jumlada iqtisodiy ko‘rsatkichlar siyosiy hamkorlikning muvaffaqiyatli ekanini isbotlovchi dalil sifatida keltiriladi. Raqamlar bu yerda emotsional ta’sirdan xoli, ob‘ektivlik va ishonchlikni kuchaytiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Global diplomatik auditoriya uchun bunday ratsional legitimlashtirish ayniqsa muhim, chunki u siyosiy bayonotlarni subyektiv bahodan ko‘ra, faktlar asosida qabul qilish imkonini beradi.

O‘zbekcha tarjimada mazkur jumla semantik jihatdan saqlangan bo‘lsa-da, pragmatik jihatdan biroz kengaytiriladi:

“O‘tgan yili mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro savdo hajmi 10,7 milliard AQSH dollariga yetdi, mintaqamizga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmi 17 foizga ko‘paydi.”

Bu yerda raqamlar saqlanadi, biroq “mintaqamiz” birliklarining qo‘shilishi ratsional dalilni kollektivlik diskursi bilan boyitadi. Natijada legitimlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki mintaqaviy birdamlik asosida ham amalga oshiriladi. Bu tarjimada pragmatik moslashuvning muhim belgisi hisoblanadi.

Inglizcha variantda tarixiy ishoralar nisbatan ixcham va umumiy xarakterga ega:

“This strategic step fully meets the interests of our peoples, who are firmly bound by a shared history, family ties, spiritual and cultural affinity.”

Bu yerda “shared history” va “spiritual and cultural affinity” kabi birliklar siyosiy qarorni umumiy tarixiy asosga tayangan holda oqlaydi, biroq tafsilotga chuqur kirmaydi. Bunday ixchamlik ingliz diplomatik diskursiga xos bo‘lib, haddan tashqari emotsional yoki ideologik urg‘udan qochishni ta’minlaydi.

O‘zbekcha variantda esa ushbu legitimlashtirish ancha kengaytiriladi:

“Ushbu strategik qadam umumiy tarix, qardoshlik rishtalari, ma'naviy va madaniy yaqinlik bilan uzviy bog'langan xalqlarimiz manfaatlariga to'liq javob beradi.”

Bu yerda “qardoshlik rishtalari” birligining kiritilishi muhim pragmatik siljishni anglatadi. Tarjima tarixiy legitimlashtirishni ma'naviy-axloqiy asos bilan kuchaytiradi. Natijada qaror nafaqat mantiqan to'g'ri, balki axloqan zarur va tabiiy jarayon sifatida taqdim etiladi. Bu milliy auditoriya uchun yuqori ishoniruvchi ohangni ta'minlaydi.

Legitimlashtiruvchi strategiyaning yana bir muhim turi — institutsional legitimlashtirishdir. Inglizcha nutqda bu mexanizm xalqaro tashkilotlar, formatlar va rasmiy tuzilmalar tilga olinishi orqali amalga oshiriladi:

“Engagement as part of ‘Central Asia Plus’ formats has intensified. The region is taking a unified position at high-profile international forums.”

Bu yerda siyosiy faoliyat xalqaro me'yor va institutlar doirasida olib borilayotgani ta'kidlanadi. Bu esa qaror va tashabbuslarning legitimligini xalqaro hamjamiyat nuqtai nazaridan mustahkamlaydi.

O'zbekcha variantda mazkur fikr quyidagicha ifodalanadi:

“Markaziy Osiyo plyus” formatidagi munosabatlar kuchaydi. Mintaqamiz nufuzli xalqaro maydonlarda yagona pozitsiyani namoyon etmoqda”.

Bu tarjimada institutsional legitimlashtirish saqlanib qolgan bo'lsa-da, “nufuzli” kabi baholovchi birliklar orqali uning ijobiy bahosi kuchaytiriladi. Natijada xalqaro maydondagi ishtirok nafaqat me'yoriy, balki faxr va muvaffaqiyat manbai sifatida ko'rsatiladi.

Keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, legitimlashtiruvchi strategiya tarjimada so'zma-so'z takrorlanmaydi, balki auditoriya va diskursiv muhitga mos ravishda qayta quriladi. Inglizcha variantda legitimlashtirish asosan ratsional va institutsional mexanizmlarga tayansa, o'zbekcha variantda u tarixiy, ma'naviy va kollektiv qadriyatlar bilan boyitiladi. Biroq mazmuniy yadro — qarorning to'g'riligini asoslash har ikki variantda ham saqlanib qoladi.

Neytrallashtiruvchi strategiya va uning tarjimada ifodalanishi

Neytrallashtiruvchi (yumshatuvchi) strategiya geosiyosiy matnlarda siyosiy pozitsiyalar, tashabbuslar va talablarni Keskin ohanglarsiz, diplomatik ehtiyotkorlik bilan ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu strategiyaning asosiy vazifasi potensial ziddiyatlarni oldindan bartaraf etish, adresatga bosim o'tkazmasdan siyosiy xabarni yetkazish hamda turli manfaatlariga ega auditoriyalar o'rtasida muvozanatni saqlashdan iborat. Pragmatika nuqtai nazaridan, neytrallashtiruvchi strategiya

ko'pincha mitigatsiya, modal birliklar, bilvosita nutq aktlari va baholovchanlikni cheklash orqali amalga oshiriladi.

Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvidagi nutqida ushbu strategiya izchil va tizimli qo'llangan bo'lib, u tarjimada ham muhim pragmatik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Biroq o'zbekcha va inglizcha variantlarda neytrallashtirish vositalarining tanlanishi va intensivligi farqlanadi.

1. Inglizcha nutqda neytrallashtiruvchi strategiyaning eng ko'p uchraydigan vositalaridan biri modal birliklardir. Masalan: *“We believe that it is important to further strengthen the institutional foundations of our cooperation”*. Bu jumlada “we believe” va “it is important” birliklari siyosiy pozitsiyani qat'iy buyruq yoki majburiyat shaklida emas, balki muhokamaga ochiq fikr sifatida taqdim etadi. Natijada adresatga bosim sezilmaydi, tashabbus esa kollektiv kelishuvga asoslangandek ko'rinadi.

O'zbekcha variantda ushbu jumla quyidagicha ifodalanadi: *“Biz hamkorligimizning institutsional asoslarini yanada mustahkamlash muhim, deb hisoblaymiz.”* Bu yerda ham ochiq buyruq shakli qo'llanilmagan bo'lsa-da, “muhim, deb hisoblaymiz” birligi inglizcha variantga nisbatan normativroq ohang kasb etadi. Shunga qaramay, “hisoblaymiz” fe'li orqali neytrallashtirish saqlanib qoladi. Bu tarjimada pragmatik moslashuvning milliy nutq me'yorlariga mos ravishda amalga oshirilganini ko'rsatadi.

2. Neytrallashtiruvchi strategiya ko'pincha siyosiy tashabbuslarni “taklif” yoki “tavsiya” shaklida berish orqali amalga oshiriladi. Inglizcha nutqda buni quyidagi misolda ko'rish mumkin: *“We propose developing a Regulation on Consultative Meetings.”* Bu jumlada “propose” fe'li tashabbusning majburiy emasligini, balki kelishuvga asoslanganini ko'rsatadi. Diplomatik diskurs uchun bu juda muhim bo'lib, u davlatlar o'rtasidagi tenglik prinsipini saqlaydi.

O'zbekcha tarjimada: *“Maslahat uchrashuvlari to'g'risidagi nizomni ishlab chiqishni taklif etamiz.”* Bu yerda “taklif etamiz” birligi inglizcha “propose” ga to'liq pragmatik mos keladi. Natijada neytrallashtiruvchi strategiya deyarli o'zgarmagan holda saqlanadi. Bu holat ayrim segmentlarda tarjimaning maksimal pragmatik ekvivalentlikka erishganini ko'rsatadi.

3. Geosiyosiy nutqlarda keskin baholovchi birliklardan qochish ham neytrallashtiruvchi strategiyaning muhim ko'rinishidir. Inglizcha variantda ijobiy baholashlar ehtiyotkorlik bilan, minimal intensivlikda qo'llanadi: *“This is a significant step.”* Bu yerda “significant” baholovchi sifat bo'lsa-da, u haddan tashqari emotsional emas va umumiy diplomatik me'yorlarga mos.



O‘zbekcha variantda esa ushbu birlik ko‘pincha kuchaytiriladi: *“Bu muhim va tarixiy qadamdir.”* Bu yerda “tarixiy” sifatining qo‘shilishi baholovchanlikni oshiradi. Shunga qaramay, nutqning umumiy kontekstida bu kuchaytirish mobilizatsion strategiya bilan bog‘liq bo‘lib, neytrallashtiruvchi strategiyaning to‘liq yo‘qolishiga olib kelmaydi. Aksincha, tarjimada strategiyalar o‘zaro qatlamlashganini ko‘rsatadi.

4. Neytrallashtiruvchi strategiyaning yana bir muhim belgisi — mas’uliyatni individual subyektdan kollektiv subyektga ko‘chirishdir. Inglizcha nutqda bu “we” shakli orqali amalga oshiriladi: *“We are confident that today we will exchange views and make crucial decisions.”* Bu yerda qarorlar bitta davlat yoki shaxs nomidan emas, balki umumiy jarayon sifatida taqdim etiladi.

O‘zbekcha variantda: *“Bugun sizlar bilan atroflicha fikrlashib, muhim qarorlar qabul qilamiz, deb ishonaman.”* Bu yerda ham mas’uliyat kollektiv tarzda taqsimlangan bo‘lib, buyruq yoki talab ohangi sezilmaydi. Bu tarjimada neytrallashtiruvchi strategiyaning muvaffaqiyatli saqlanganidan dalolat beradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, neytrallashtiruvchi strategiya tarjimada to‘liq yo‘qolmaydi, biroq milliy siyosiy nutq me‘yorlariga mos ravishda qisman kuchaytirilishi yoki yumshatilishi mumkin. Inglizcha variantda neytrallashtirish asosan modal birliklar va bilvosita nutq aktlari orqali amalga oshirilsa, o‘zbekcha variantda u normativlik va kollektivlik bilan uyg‘unlashadi. Bu holat tarjimada pragmatik muvozanatning saqlanganini ko‘rsatadi: siyosiy xabar keskinlashmaydi, diplomatik ehtiyotkorlik buzilmaydi, biroq auditoriya uchun tushunarli va ishontiruvchi shaklga keltiriladi.

3. Mobilizatsion strategiya va uning tarjimada ifodalanishi

Mobilizatsion strategiya geosiyosiy matnlarda auditoriyani umumiy maqsadlar atrofida birlashtirish, siyosiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga ruhlantirish va kelajak uchun ijobiy kollektiv tasavvur yaratishga xizmat qiladi. Ushbu strategiya legitimlashtiruvchi va neytrallashtiruvchi strategiyalardan farqli o‘laroq, emotsional va ideologik komponentga ko‘proq tayanadi. Pragmatik nuqtai nazardan, mobilizatsion strategiya adresatning hissiy javobini faollashtirish, “biz” identifikatsiyasini kuchaytirish va siyosiy jarayonlarni umumiy mas’uliyat sifatida talqin qilish orqali amalga oshiriladi.

Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvidagi nutqida mobilizatsion strategiya izchil tarzda qo‘llanib, tarjimada ham muhim pragmatik qatlamni tashkil etadi. Biroq inglizcha va o‘zbekcha variantlarda ushbu strategiyaning ifodalanish intensivligi va lingvistik vositalari sezilarli darajada farqlanadi.



Mobilizatsion strategiyaning markaziy unsurlaridan biri — kollektiv identitetni shakllantirishdir. Inglizcha variantda bu strategiya inklyuziv “we” shakli orqali amalga oshiriladi: *“Our strength is in unity, our path to success is in friendship and cooperation.”* Bu jumlada kollektivlik universal va umumiy qadriyatlar darajasida ifodalanadi. Auditoriya global va mintaqaviy hamjamiyat sifatida tasavvur qilinadi, emotsional urg‘u esa me‘yoriy darajada saqlanadi.

O‘zbekcha variantda esa mazkur fikr kuchaytirilgan mobilizatsion ohangda beriladi: *“Alohida ta’kidlamoqchiman: bizning kuchimiz – birlikda, muvaffaqiyat sari yo‘limiz – do‘stlik va hamkorlikda”*. Bu yerda “alohida ta’kidlamoqchiman” konstruksiyasi nutqning mobilizatsion markazini aniq belgilab beradi. Tarjimada kollektivlik faqat grammatik vosita emas, balki emotsional chaqiriq sifatida qayta quriladi. Bu milliy auditoriyani faol ruhlantirishga qaratilgan pragmatik moslashuvdir.

Mobilizatsion strategiya ko‘pincha kelajak tasvirini yaratish orqali amalga oshiriladi. Inglizcha nutqda bunday obrazlar ehtiyotkor va diplomatik shaklda beriladi: *“We are on the threshold of a historic revival of the region as a New Central Asia.”* Bu jumlada “threshold” metaforasi kelajakdagi ijobiy o‘zgarishlarni bildiradi, biroq keskin va buyruq ohangidan xoli.

O‘zbekcha variantda esa mazkur fikr emotsional va ideologik jihatdan kuchaytiriladi: *“Bugun biz mintaqamizning Yangi Markaziy Osiyo sifatidagi tarixiy uyg‘onish davri ostonasida turibmiz.”* Bu yerda “tarixiy uyg‘onish davri” birligi mobilizatsion strategiyani maksimal darajada faollashtiradi. Tarjima kelajakni nafaqat ehtimoliy, balki deyarli muqarrar va ijobiy jarayon sifatida ko‘rsatadi. Natijada auditoriya ushbu jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiriladi.

Mobilizatsion strategiyaning muhim belgisi — baholovchanlik intensivligining oshishidir. Inglizcha variantda baholovchi birliklar cheklangan va diplomatik me‘yor doirasida qo‘llanadi: *“This is a truly historic day for our fraternal peoples.”* Bu yerda “historic” sifati ijobiy baho beradi, biroq haddan tashqari emotsional emas.

O‘zbekcha variantda esa ushbu baholovchanlik kuchaytiriladi: *“Bugun bizning qardosh xalqlarimiz uchun haqiqatan ham tarixiy kundir.”* Bunda “haqiqatan ham” kuchaytirgichi mobilizatsion ta’sirni oshiradi va auditoriyada faxr hamda mas’uliyat hissini uyg‘otadi. Tarjimada baholovchanlikning kuchaytirilishi mobilizatsion strategiyaning ongli ravishda qayta qurilganini ko‘rsatadi.

Mobilizatsion strategiya bevosita chaqiriqlar orqali ham amalga oshiriladi, biroq geosiyosiy nutqlarda bu chaqiriqlar ochiq buyruq shaklida emas, balki umumiy mas’uliyatni ta’kidlovchi iboralar orqali beriladi. Inglizcha nutqda: *“Only by uniting, building on mutual respect, solidarity and strategic vision, can we achieve our noble*

goals.” Bu jumlada “only by” konstruksiyasi shartli chaqiriqni bildiradi va auditoriyani umumiy harakatga undaydi.

Mobilizatsion strategiya geosiyosiy matnlar tarjimasida auditoriyani safarbar etish, kollektiv identitetni mustahkamlash va kelajak tasavvurini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Prezident nutqi misolida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, tarjimada ushbu strategiya yo'qolmaydi, aksincha milliy diskurs me'yorlariga mos holda emotsional va ideologik jihatdan kuchaytiriladi. Bu holat geosiyosiy tarjimini nafaqat axborot uzatish, balki siyosiy ruhlantirish vositasi sifatida ham talqin qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Geosiyosiy matnlarda kommunikativ strategiyalar va ularning tarjimada realizatsiyasi (Prezident nutqi misolida qiyosiy jadval)

Strategiya turi	Asosiy kommunikativ maqsad	Inglizcha variantda realizatsiya	O'zbekcha variantda realizatsiya	Tarjimadagi pragmatik siljish
Legitimlashtiruvchi strategiya	Siyosiy qaror va tashabbuslarni asoslash, oqlash	Ratsional va institutsional dalillar: iqtisodiy ko'rsatkichlar, xalqaro formatlar, faktlar (“ <i>trade reached...</i> ”, “ <i>formats intensified</i> ”)	Tarixiy, ma'naviy va kollektiv asoslar bilan boyitish (“ <i>umumiy tarix</i> ”, “ <i>qardoshlik rishtalari</i> ”)	Ratsional legitimlashtirish ma'naviy-tarixiy legitimlashtirish
Neytrallashtiruvchi strategiya	Diplomatik ehtiyotkorlikni saqlash, keskinlikni kamaytirish	Modal birliklar va bilvosita nutq aktlari (“ <i>we believe</i> ”, “ <i>we propose</i> ”)	Normativ, ammo yumshatilgan shakllar (“ <i>muhim, deb hisoblaymiz</i> ”, “ <i>taklif etamiz</i> ”)	Yumshatish saqlanadi, lekin normativlik kuchayadi
Mobilizatsion strategiya	Auditoriyani ruhlantirish, kollektivlikni	Cheklangan emotsional baholash,	Kuchaytirilgan baholovchanlik va chaqiriq	Emotsional intensivlik oshiriladi



Strategiya turi	Asosiy kommunikativ maqsad	Inglizcha variantda realizatsiya	O‘zbekcha variantda realizatsiya	Tarjimadagi pragmatik siljish
	mustahkamlash	umumiy metaforalar (“ <i>historic day</i> ”, “ <i>new horizons</i> ”)	(“ <i>haqiqatan ham tarixiy</i> ”, “ <i>bizning kuchimiz – birlikda</i> ”)	–

Prezident nutqining inglizcha va o‘zbekcha variantlarida bir xil kommunikativ strategiyalar mavjud bo‘lsa-da, ularning realizatsiya darajasi va intensivligi farqlanadi. Inglizcha variant global diplomatik auditoriyaga mos ravishda neytral va institutsional xarakterga ega bo‘lsa, o‘zbekcha variant mintaqaviy va milliy auditoriya ehtiyojlariga mos ravishda baholovchanlik va mobilizatsion elementlarni kuchaytiradi. Bu farqlar tarjimaning kamchiligi emas, balki geosiyosiy matnlar tarjimasida muqarrar bo‘lgan pragmatik moslashuv natijasidir. Tarjima jarayonida kommunikativ strategiyalar saqlanadi, biroq ularning ifodalanish shakli va diskursiv og‘irligi o‘zgaradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot geosiyosiy matnlarda kommunikativ strategiyalar tizimli xarakterga ega ekanini hamda ularning tarjimada pragmatik moslashuv orqali qayta qurilishini aniqladi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, legitimlashtiruvchi, neytrallashtiruvchi va mobilizatsion strategiyalar manba matnda diplomatik va institutsional me‘yorlarga tayangan holda ifodalansa, maqsad matnda ular milliy siyosiy diskurs talablari asosida boyitiladi. Tarjimada yuzaga keladigan pragmatik siljishlar siyosiy mazmunning buzilishiga emas, balki kommunikativ samaradorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Schäffner C. Political discourse analysis from the point of view of translation studies // *Journal of Language and Politics*, 2015. – Vol. 14, No. 2. – P. 165–186.
2. Mamarasulova, Gulnoz. “SIYOSIY MATN TARJIMASINING LINGVOKULTUROLOGIK JIHLATLARI.” *Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2025.
3. Mamarasulova, Gulnoz. “Geopolitical Discourse In Translation.” *International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research*. Vol. 1. No. 4. 2025.
4. Mamarasulova, Gulnoz. “GEOPOLITICAL MEANINGS IN MEDIA DISCOURSE.” *Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2025.

5. Mamarasulova, Gulnoz, and Ruxshona Cho‘liyeva. “DIPLOMATIK MATNLARNING TARJIMADA IFODALANISHI.” *Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2025.
6. Mamarasulova, Gulnoz. “GEOPOLITICAL MEANINGS IN MEDIA DISCOURSE.” *Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2025.
7. Mamarasulova, Gulnoz. “DIPLOMATIK MATNLAR LINGVISTIKASI VA EVFEMIZMLARNING TARJIMA QILINISHI.” *KONFERENSIYA 1.2* (2025): 348-351.
8. Gavharoy Ruzimovna Komilova. (2022). METHODS OF ANALYSIS OF VALUES REFLECTED IN PROVERBS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(12), 34-43. <https://doi.org/10.37547/ijasr-02-12-05>
9. Hakimova M. Leveling lexical abstraction in Uzbek Language. *Anglisticum Journal*. May, 2019. -P. 36-42.
10. https://www.researchgate.net/publication/361667526_The_age_factor_in_the_formation_of_a_linguistic_personality?_tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnNOUGFnZSI6InB5b2ZpbGUiLCJwYWdlIjoicHJvZmlsZSJ9fQ
11. MAHMADIYOR, A. (2020). THE PROBLEM OF AN ABSURD HERO IN THE PROSE OF ALBERT CAMUS AND KHURSHID DUSTMUHAMMAD. *INTERNATIONAL JOURNAL*, 2(3), 117-126.
12. Muhammadiyeva D. (). “BOBURNOMA” NING TURKCHA TARJIMASI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR. Vol. 1 No. 1 (2025): FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI.
13. Rashidova, N. B. (2021). Active, common words-arabisms of the sphere of education in the uzbek language. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(11), 574-579.
14. Shamsiyeva M. БИЛИНГВИЗМНИНГ БОЛА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖИГА ТАЪСИРИ. VIII. ULUSLARARASI TÜRK DÜNYASI ARAŞTIRMALARI SEMPOZYUMU (2 – 5 Haziran 2021, Niğde)
15. UI Abdikarimovna [«KO‘NGIL» LEKSEMASI VA UNING «TAFAKKUR» SEMEMASIDAN SHAKLLANGAN FRAZEMALAR TAHLILI \(«Xamsa» asari misolida\)](#). *Philological research: language, literature, education*, 2025
16. Turdiyevna, K. Z., & Ruzimovna, K. G. (2021). The role of zoonyms in the expression of axiological content. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1430-1434.
17. H M [«Kutadqu bilig» eserindeki bazı türkçe sözler ve onların özbekçedeki biçimleri üzerine](#) *Global-turk*, 12-17.
18. Umurzakova M.E. [Types of linguistic personality in the literary text \(on the example of Ulugbek hamdam's stories\)](#)